XALQ DEPUTATLARI MUBORAK TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 18-sentabr VI-73-147-4-64-K/24 Muborak tumani

Muborak tumani hududidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi qonuni va Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi **299-sonli** qarorining **1-ilovasi** bilan tasdiqlangan “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom ijrosi yuzasidan hamda tuman hokimining 2024-yil 21-avgustdagi № 78-4-64-F/24-sonli farmoyishiga asosan, Respublika aerogeodeziya markazi tomonidan Qashqadaryo viloyati Muborak tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlarining yakuniga ko‘ra tumandagi shahar, shaharcha va qishloqlarining umumiy perimetri **773466,81 metr** umumiy maydoni **307278,64 gektar** ekanligi aniqlandi

Jumladan:

Muborak shahri umumiy perimetri 25240,02 metr, umumiy maydoni 1738,88 gektar;

Yangi Qoraqum shaharchasi umumiy perimetri 7383,74 metr, umumiy maydoni 108,54 gektar;

Baxt shaharchasi umumiy perimetri 11720,50 metr, umumiy maydoni 492,86 gektar;

Shayx shaharchasi umumiy perimetri 5815,56 metr, umumiy maydoni 192,18 gektar;

Qarliq shaharchasi umumiy perimetri 25642,94 metr, umumiy maydoni 1505,79 gektar;

Diyonat shaharchasi umumiy perimetri 8702,59 metr, umumiy maydoni 341,55 gektar;

Qoraqum shaharchasi umumiy perimetri 14451,07 metr, umumiy maydoni 452,74 gektar;

Muborak qishlog'i umumiy perimetri 403518,66 metr, umumiy maydoni 250700,23 gektar;

Sariq qishlog'i umumiy perimetri 90425,07 metr, umumiy maydoni 25473,80 gektar;

Qoraqum qishlog'i umumiy perimetri 76695,92 metr, umumiy maydoni 13453,94 gektar;

Qarliq qishlog'i umumiy perimetri 46690,70 metr, umumiy maydoni 4341,58 gektar;

Sardoba qishlog'i umumiy perimetri 57180,04 metr, umumiy maydoni 8476,55 gektar;

Muborak tumani ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilashda shahar, shaharcha va qishloqlar chegaralari ajratib ko‘rsatilgan holda tavsiflandi. Chegaralar chizig‘ining yozuvli matni tavsifida joyning tegishli topografik elementlari bilan bog‘lanib, chegara nuqtalari o‘rtasidagi masofasi va chegara chizig‘ining qutb yo‘nalishlari aks ettirildi. Chegara chizig‘ining burilish nuqtalari koordinatalari ko‘rsatildi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan Davlat kadastrlar palatasining Muborak tumani filiali rahbari J.Otamurodovning hisobotini tinglab, taqdim etilgan ma’lumotlar fikr va mulohazalarini hamda taklif va tavsiyalarini atroflicha o‘rganib chiqib, “O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi Qonunning 10-moddasi hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6 va 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A D I :

1.Davlat kadastrlari palatasining Muborak tumani filiali rahbari J.Otamuradovning Muborak tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash to‘g‘risidagi hisoboti hamda Respublika aerogeodeziya markazi tomonidan Muborak tumanidagi shahar va qishloqlarning chegaralarini belgilash bo‘yicha bajarilgan ishlarning yakuniy natijalarini ko‘rib chiqish yuzasidan tuman hokimligida tuzilgan ishchi guruh tarkibining 2024-yil 23-avgustdagi №-B-170 sonli yig‘ilish bayoni ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2.Muborak tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlari yakuniy natijalari to‘g‘risidagi ma’lumot 1-ilovaga hamda ma’muriy-hududiy birliklarning chegaralarini belgilash bo‘yicha kartografik chizmasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3.Tuman hokimligi matbuot xizmati (I.Maxmudov)ga mazkur qarorni tuman hokimligining rasmiy veb-saytida yoritilishini ta’minlasin.

4.Ushbu qarorning tasdig‘i Qashqadaryo viloyati Xalq deputatlari Kengashidan so‘ralsin.

5.Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari va tuman hokimining barcha o‘rinbosarlari (S.Safarov, N.Abdinazarov, A.Rasulov, X.Maxamatov) zimmalariga yuklatilsin.

Sessiya raisi



PARPIYEVA ALIME TASHBAYEVNA

Xalq deputatlari Muborak tumani
Kengashining
2024-yil 18-sentabrdagi
VI-73-147-4-64-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Muborak tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlarining yakuniy natijalari to‘g‘risida

M A ’ L U M O T

T/r	Ma’muriy-hududiy birliklarning nomi	Umumiy perimetr (metr)	Umumiy maydoni (gektar)
1	Muborak shahri	25240,02	1738,88
2	Yangi Qoraqum shaharchasi	7383,74	108,54
3	Baxt shaharchasi	11720,50	492,86
4	Shayx shaharchasi	5815,56	192,18
5	Qarliq shahrchasi	25642,94	1505,79
6	Diyonat shaharchasi	8702,59	341,55
7	Qoraqum shaharchasi	14451,07	452,74
8	Muborak qishlog'i	403518,66	250700,23
9	Sariq qishlog'i	90425,07	25473,80
10	Qoraqum qishlog'i	76695,92	13453,94
11	Qarliq qishlog'i	46690,70	4341,58
12	Sardoba qishlog'i	57180,04	8476,55
	Jami	**773466,81**	**307278,64**

Xalq deputatlari Muborak tumani
Kengashining
2024-yil 18-sentabrdagi
VI-73-147-4-64-K/24 -son qaroriga
2-ilova

Muborak tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash chegaralarining kartografik chizmasi

